

ISLOM IQTISODIYOTI VA MOLIYASINING KICHIK BIZNIZNI MOLIYALASHTIRISHDAGI O‘RNI

Atabekova Shaxnoza Aslanbek qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom iqtisodiyoti va moliyasining kichik biznesni moliyalashtirishdagi o‘rni nazariy va amaliy asoslari o‘rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi

Kalit so‘zlar: islom moliyasi, kichik va o‘rta biznes subektlari, murabaxa, sukuk, muzoraba, mushoraka.

THE ROLE OF ISLAMIC ECONOMICS AND FINANCE IN OUR SMALL FINANCE

Atabekova Shaxnoza Aslanbek qizi

*Master's student of the Banking and Finance Academy of the Republic of
Uzbekistan*

Abstract. This article examines the theoretical and practical foundations of the role of Islamic economics and finance in financing small businesses, and based on them, conclusions and scientific and practical proposals are formulated.

Keywords: islamic finance, small and medium-sized businesses, murabaha, sukuk, muzarab, musharaka.

Moliyaviy munosabatlarning shar‘iy jihatlari O‘zbekistonlik diniy ulamolar, xususan Shayx Muxammad Sodik Muxammad Yusufning “Tafsiri Hilol”¹⁷, Shayx Abdulaziz Mansurning “Qur’oni karim ma’nolari tarjimasi” va tafsiri, Usmonxon Alimovning “Tafsiri Irfon”, ya’ni Qur’oni karim oyatlarining o‘zbekcha tarjima va tafsiri xamda ularning boshqa asarlarida ko‘rib o‘tilgan.

Islom iqtisodiy tizimining o‘ziga xos jihati shundaki, u insonlarning moddiy ehtiyojlaridan tashqari ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini xam inobatga oladi va shu sababli erkin bozor qonunlarini ma’qullagan holda, jamiyat manfaatlarini

¹⁷ Muxammad Sodik Muxammad Yusuf. Hadis va hayot, 11-juz, Savdo, ziroat va vaqf, 2005. 269 b; “Bozor va unga bog‘liq masalalar”, 2014. 104 b, “Qarz va unga bog‘liq masalalar”, 2014. 128 b.

ta'minlash xamda shu erkin bozorda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan adolatsizliklarni oldini olish maqsadida muayyan ma'naviy-axloqiy chegaralar o'rnatadi. Shunga ko'ra, islom iqtisodiyotining maqsadi ma'naviy mas'uliyatga ega bozor iqtisodiyoti tizimini o'rnatish deyish mumkin. Zero, islom iqtisodiyotida boyliklarning jamiyat ichida adolatli taqsimlanishi va shu orqali ijtimoiy barqarorlik ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Boyliklarni yaratish va taqsimlashning eng adolatli usuli esa, bu biznes-sherikchilikdir, chunki bunda, amalga oshirilgan faoliyat samarasi barcha sheriklar o'rtasida adolat bilan taqsimlanishi uchun muayyan sharoit yaratiladi (chunki odatda biznes xamkorlar umumiy biznes muvaffaqqiyatidan manfaatdordirlar).

Islomiy iqtisodiy andoza muqobilligi tarafdorlarining ta'kidlashicha, islom iqtisodiyotida kapitalistik va sosialistik tuzumlar xo'jalik boshqarish usulining kamchiliklari bartaraf etiladi. Bu islom iqtisodiyotida, kapitalizmdagi xususiy mulkning mutlaqligi (absolyutizatsiya) va sovetlar namunasidagi sosializm tomonidan uning qariyb butkul rad etilishi o'rtasida "oltin" mo'tadillikka erishilganida o'z ifodasini topadi.

Albatta, mulkka nisbatan islomdagi munosabat bilan kapitalizmdagi mulkning mutlaqligi to'g'risidagi asosiy fikrlar taqqoslanishi, bizning nazdimizda butkul noto'g'ri. Darhaqiqat islom dinida o'rinbosarlik g'oyasi hukmronlik qiladi, unga ko'ra bu dunyodagi ne'matlarning barchasi Allohga tegishli, inson esa o'z qo'lidagi moddiy xamda ma'naviy ne'matlarni ishonchli boshqaruvchi (tasarruf etuvchi) hisoblanadi. Ammo bu yerda so'z Yaratuvchi va inson o'rtasidagi munosabat haqida bormoqda. Odamlar o'rtasidagi munosabatda esa mulkka bo'lgan huquq islomda, hattoki G'arbdagiga nisbatan xam qat'iyroq himoya qilinadi.

Shu bilan birga islom iqtisodiyoti kapitalistik iqtisodiyotdan islom va kapitalizmda xususiy mulkchilik tan olinishi va muhofaza qilinishi bilangina qisman yoki umuman farq qilmaydi deb tasdiqlash noto'g'ri bo'lur edi. Xuddi shuni kapitalizm va islomiy xo'jalik yuritish usuliga xos bo'lgan bozor to'g'risida xam aytib o'tish mumkin.

Xammaga ma'lumki, xususiy mulkchilik va bozor kapitalizmga qadar xam mavjud bo'lgan. Kapitalizm muayyan shaklga asoslangan xususiy mulkchilik xamda ma'lum bir toifadagi mulkdor va yollanma ishchi munosabatlari tizimini o'zida aks ettiradi.

Bizning nazarimizda, bir qator rasmiy o'xshashliklarga qaramay, islom iqtisodiyoti kapitalistik iqtisodiyot bilan aynan bir xil emas. Aniqroq aytadigan bo'lsak, islom iqtisodiyoti muqobilligi uning nafaqat kapitalistik,

balki socialistik iqtisodiyot bilan xam umumiy qiyofalarga ega ekanligini inkor etmaydi.

Sobiq ittifoq davrida siyosiy voqelik va fikrlardan holi, faqat iqtisodiy toifalardangina iborat islomiy bank tashkil etilishini ko'z oldimizga keltiraylik. Islom iqtisodiyotining o'ziga xos ajratib turuvchi belgilaridan bo'lmish sudxo'rlikni rad etilishi, ijtimoiy yo'nalganlik va boshqalar ateistcha qarashlarga ega socialistik iqtisodiyotga juda muvofiq kelgan bo'lur edi. Sovet davlatida cheklangan holatda bo'lsada, bozor va xususiy mulkchilik mavjud edi. Iqtisodiyotning rejali xususiyati, shuningdek, unda davlatning hukmron mavqega ega ekanligi xam islomiy tamoyillarga zid emas.

XX asrning aksariyat qismida dunyodagi tuzumlar kapitalistik va socialistik tuzumlarga bo'lingan. Lekin kapitalizm va sosializmdan farqli ravishda, islom iqtisodiyoti – avval boshdan transmilliy ko'rinishga ega bo'lib, hech bir davlatda doimiy "ro'yxat"dan o'tmagan edi. Hech qanday geografik bog'liqlik unga xos emasdir. Islom iqtisodiyotini Islom Xamkorlik Tashkiloti (IHT) a'zolari bo'lgan mamlakatlar iqtisodiyoti bilan aynan bir xil deb qaraydigan bir qator tadqiqotchilarning yanglish fikrlari xam yetarli darajada keng tarqalgan.

IHT mamlakatlari iqtisodiyoti va islom iqtisodiyoti o'rtasida tenglik belgisini qo'yish noto'g'ri bo'lur edi, chunki tashkilotning faqat uch a'zosi bo'lgan mamlakatlar – Pokiston, Eron va Sudandagina xo'jalik faoliyatining barcha bo'g'inlarini unchalik muvaffaqiyatli bo'lmagan islomiylashtirishga urinishlar amalga oshirildi. Boshqa mamlakatlarda esa bunday islohotlar umuman o'tkazilmadi. Bundan tashqari, IHTning ayrim a'zo mamlakatlarida, masalan MDH respublikalarida, Afrika (Mozambik, Serra-Leona va boshqalar) va Lotin Amerikasining (Gayana, Surinam) bir qator davlatlarida biron-bir islomiy moliya muassasalari umuman mavjud emas va ularda an'anaviy xo'jalik yuritish usuli hukmronligi saqlanib qolmoqda.

Shunday qilib, islom iqtisodiyotining tarkibiy qismi bo'lgan islomiy moliya tizimi haqida fikr yuritilar ekan, so'z an'anaviy nuqtai-nazardagi moliya tizimi haqida emas, balki islomiy moliyaviy muassasa va vositalarning uyg'unligi talqinidagi tizim haqida borayotganini nazarda tutish lozim bo'ladi. An'anaviy tushunchadagi islomiy moliya tizimi haqida so'z yuritishning yanglishligi shundaki, jahonda aqat bir mamlakat – Sudanda moliyaviy sektor butkul islomiylashtirilgan. Aksariyat mamlakatlarda islomiy moliya muassasalari mavjud an'anaviy moliyaviy tizimning bir qismi hisoblanadi.

IHT doirasida Islom Taraqqiyot banki, islomiy moliya muassasalari (banklar, jamg'armalar, sug'urta kompaniyalari va boshqalar) singari obro'li muassasaviy

iqtisodiy tuzilmalar mavjud bo'lsada, ular musulmon mamlakatlar iqtisodiyoti bilan yaxlit holatda emaslar. Masalan, musulmon fiqhi meyorlari keng qo'llanadigan mamlakatlardan biri hisoblanuvchi Saudiya Arabistonida fuqaroviy va moliyaviy qonunchilik g'arb namunasi bo'yicha tashkil etilgan va islomiy moliyaviy muassasalar qoida sifatida emas, balki istisno sifatida ko'rib chiqiladi. Dastlabki to'laqonli islomiy banklar qirollikda 1990- yillarda paydo bo'la boshladi.

Shu bilan bog'liq ravishda, rus sharqshunoslarining Saudiya Arabistoni misolida islomiy iqtisodiy andozaning yashovchan emasligini isbotlashga urinishlari ajablanarlidir. Masalan, "Dunyoqarashning islomiy konsepsiyasi" asari muallifi N.V.Jdanovning fikricha, "islom iqtisodiyotining amalga oshmaganini Saudiya Arabistoni timsolida nazariya va amaliyot o'rtasida farq borligida kuzatish mumkin: qirollikdagi aksariyat banklar g'arb banklaridagi mana shunday amaliyotlardan farq qilmaydigan amaliyotlar bilan shug'ullanadilar" (N.V.Jdanov, 2003. 325-bet). Bunday da'volar muallifning Saudiya Arabistonida nafaqat islomiy banklar, balki an'anaviy banklar xam faoliyat yuritishidan bexabarligini ko'rsatadi.

Islomiy moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi barcha muassasalarga bir yo'sinda yondashish noto'g'ri bo'lur edi. Butun dunyo bo'ylab keng yoyilgan islomiy moliyaviy muassasalarning nafaqat amaliyot mexanizmida, balki maqsad va vazifalarida xam o'xshashlikdan ko'ra tafovutlar ko'proqdir. Bahraynda islomiy moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi "Sitibank" bo'limi va o'z faoliyatida islomiy tamoyillarni qo'llovchi Sudandagi kooperativ bankni solishtirib ko'ramiz. O'ta yirik TMK (transmilliy kompaniya) tarkibiy qismi va asosan qishloq joylarida faoliyat yurituvchi kooperativ bankning bo'limi faoliyatida rasmiy o'xshashliklar bo'lsada, haqiqatda ularning maqsad va vazifalari turlicha ekanligi ayondir. Transmilliy bank bo'limi yangi omonatchilar mablag'larini jalb etishni maqsad qilib olgan, uning faoliyati musulmon xamjamiyati manfaatlari uchun yo'naltirilmagan va yakunda o'zining ehtiyoji uchun kapital yig'ish bilan mashg'ul bo'ladi. Shu bilan bir vaqtda Sudan kabi qashshoq davlatdagi kooperativ bank rasmiy darajada bo'lsada, o'ta muhim ijtimoiy vazifalarni bajarishga safarbar qilingan. Boshqacha aytganda, xammasi iqtisodiy munosabatlar subektlari(iqtisodiy agentlar)ning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga bog'liq bo'lib qoladi.

1-jadval

Islom iqtisodchilari tomonidan islom iqtisodiyotiga berilgan ta'riflar

№	Muallif	Ta'rif
1	Hasan uz-Zaman (1984, 51-53 pp)	Islom iqtisodiyoti bu insonlarning Alloh va jamiyat oldidagi burchlarini bajarish uchun kerak bo'ladigan moddiy boyliklarga ega bo'lish va ularni taqsimlashda adolatsizlikka yo'l qo'ymaslik maqsadida shariat hukmlari va qonun-qoidalarini bilish va amalga tatbiq etishdir
2	Hasan Zubayr (2016)	Inson hayot tarzini, ehtiyojlarning ko'pligi va resurslar tanqisligidan kelib chiqqan holda o'rganuvchi fan
3	Saif Tojiddin (1994. Vol.3, №2. – 97-100 pp)	Qur'oni karim va sunnatga asoslangan iqtisodiy siyosat
4	Muxammad Mannan (1970. – 18 p)	Iqtisodiy muammolarni islom asosida o'rganuvchi ijtimoiy fan
5	Muxammad Umar Chapra (2011, 135-142 pp)	Islom iqtisodiyoti – cheklangan resurslarni islom dini ta'limotiga muvofiq ravishda taqsimlash vositasida inson farovonligiga erishish uchun yordam beruvchi bilimlar majmuasi bo'lib, bunda shaxs erkinligi haddan tashqari cheklanishiga xamda davomiy makroiqtisodiy va ekologik nomutanosiblikka yo'l qo'yilmaydi
6	Andrey Juravlyov (2017, 232-bet)	Jamiyat xo'jalik faoliyatini tashkil etish mexanizmi va tamoyillariga musulmonlarning qarashlari tizimi
7	Rinat Bekkin (2019, 360-bet)	Musulmon fiqhi tamoyillari va meyorlariga muvofiq keluvchi xo'jalik tizimi

Manba: Muallif tomonidan tuzildi

O'rganilgan adabiyotlarni umumlashtirgan holda islom moliyalashtirish xizmatlari asosida kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish usullari va pirovard natijada erishiladigan yutuqlar sifatida quyidagi jihatlarga to'xtalib o'tish mumkin.

- O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb muammolarini hal qilishda, xususan bank-moliya tizimini takomillashtirishda islom moliya tizimi imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollarini ko‘rsatib berish;

- islom iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarining mohiyati xamda nazariy asoslarini ochib berish;

- an’anaviy va islom banklari faoliyatining qiyosiy tahlilini amalga oshirish orqali islom banklarining o‘ziga xos xususiyatlari va afzal jihatlarini ochib berish;

- islom moliyasini joriy etish xorij tajribasini tadqiq qilish va buning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib berish;

- O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda islom bank-moliya tizimini rivojlantirish orqali ichki va tashqi (ya’ni xorijiy) investitsiyalar jalb qilish va shu orqali investitsiyalarni diversifikatsiya qilish zarurati, ahamiyati va imkoniyatlarini ochib berish;

- O‘zbekistonning xorijiy islom banklari va boshqa moliya muassasalari bilan xamkorligi doirasini kengaytirish va shu orqali mamlakatga investitsiyalar jalb qilish imkoniyatlarini ko‘rsatish;

- islom bank-moliya tizimida moliyaviy manbalar samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy jihatlarini asoslangan;

- an’anaviy va islom banklari faoliyati qiyosiy tahlil qilinib, hozirgi sharoitda O‘zbekistonda dualistik tizimning talabgirlikni ko‘rsatib berilgan;

- islom bank-moliya munosabatlari rivojlanishining xorijiy mamlakatlar tajribasi va undan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan;

- islom bank-moliya tizimining asosiy vosita va mahsulotlari tarkiblashtirilgan;

- jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va pandemiya sharoitida islom bank-moliya tizimining barqarorligi sabablari ko‘rsatib berilgan;

- islom bank-moliya tizimi an’anaviy bank-moliya tizimiga raqobatchi emas, balki uni to‘ldiruvchi muqobil tizim ekanligi asoslangan;

- islom bank-moliya tizimining investitsiyalarni diversifikatsiya qilishdagi imkoniyatlari yoritilgan;

- O‘zbekiston sharoitida islom moliyasi va bankchiligini joriy qilish va rivojlantirishning huquqiy-tashkiliy asoslarini tahlil qilish va shu bo‘yicha bank-moliya tizimiga islom moliyasi vosita va mahsulotlarini tatbiq qilish taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.